

XITOIY VA YEVIROPA DAVLATLARI O'RTASIDAGI ALOQALARNING ISTIQBOLLARI

Sabirov Latifboy Otabek o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8431150>

Zamonaviy davrda xalqaro munosabatlar tizimining bir muncha o'zgarishi va buning ortidan geosiyosiy va iqtisodiy qiziqishlarning tobora "sharqqa" tomon kuchayishi kuzatilmoqda. Albattaki, bunday holat shakllanishida asosiy rollardan birini Xitoy Xalq Respublikasi egallaydi, ya'ni o'sha misli ko'rilmagan iqtisodiy o'sish va dunyodagi o'z so'ziga ega davlatlardan biriga aylanishi dunyo tartibotini yangilashda majbur qildi.

Tarixan ma'lumki XXR asos solingan davrdan boshlab o'z tashqi siyosatida SSSR boshchiligidagi sotsialistik lager davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirishga e'tibor qaratdi. Sovuq urush avjiga chiqqan davrda dunyo ikki qutbga sotzializmga va kapitalizmga asoslangan davlatlarga bo'lindi, aynan Yevropaning ko'p davlatlari kapitalizm yolini tanlashgandi. O'tgan asrning 80-yillariga kelib Xitoy o'zining tashqi siyosatini tobora Yevropa tomon o'zgartira boshladi. Bunday siyosatning asosiy sababchisi sifatida esa "Xitoy islohotlarning arxitektori" nomi bilan tanilgan Den Syaopinning mamlakat boshqaruviga kelganligi bo'ldi. Syaopin o'zining "Ochiq islohotlar" strategiyasi orqali Xitoyning yopiq eshiklar g'oyasiga barham bera boshladi. "Xitoycha kapitalizm" g'oyasini ilgari surish orqali Xitoy bozor munosabatlariga asoslangan ochiq siyosat yurita boshladi va o'z navbatida Yevropa davlatlari bilan ikki tomonlama munosabatlarni o'rnatishga va yanada kengaytirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshira boshladi.

Avvalo, bu ikki taraf o'rtasidagi munosabatlarning istiqbollari to'g'risida so'z yuritishda birinji navbatda, har bir tomonning ushbu munosabatlardan ko'zlayotgan maqsadlariga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi. Albatta, Xitoy iqtisodiy jihatdan yirik va dunyoda yetakchilikka davo qilayotgan davlat, o'z navbatida bu holat Yevropa davlatlari tomonidan Xitoyni ikki taraflama qabul qilishga majbur qiladi, birinchi tarafdin bu katta imkoniyatlarga yo'l ochsa, ikkinchi tomondan xavotirga sabab bo'lmoqda.¹ Holatning mavhumligiga sabab sifatida Yevropa davlatlari boshqaruv institutlari tomonida ikki tomonlama munosabatlarni nazorat qilishda yetarli darajada mehanizmning yo'qligini keltirib o'tishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Ikkala tomon hukumatlari vakillari o'zaro aloqalarni "hamkorlik" deb atashadi va aslida ham shunday, chunki ochiq ma'noda tomonlarning bir biriga raqib bo'lishi uchun yaqqol ko'rsatadigan yo'nalish yo'qdek.

Shuni ishonch bilan aytilish mumkinki, Xitoy Xalq Respublikasi va Yevropa davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda asosiy o'rinni iqtisodiy manfaatlar egallaydi. Hozirning o'zida yevropaning iqtisodiy hamkorlari o'rtasida Xitoy Aqshdan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi va bu jarayon yanada jadallashishiga hech qanday shubha yo'q. Ikkala tomon ham yangi iqtisodiy takliflar va kelishuvlardan faqat manfaatdor va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga qarshi emas.

Xitoy va Yevropa davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda "Ko'p tamonlama iqtisodiy kelishuv" ning ahamiyati juda katta. Bu juda katta iqtisodiy loyiha bu ikki tomon o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishi kerak. Bu hujjat birinchi marta 2013-yilda imzolangan va bu yili

¹ Виноградов А.О. Китай и страны Европейского Союза во втором десятилетии XXI века. 2014. С56.

yangi talqinda va yanada kengroq kelishuvlarni o'z ichiga olishi rejalashtirilgan. Ahamiyatli jihati shundaki, bu hujjat butun dunyo e'tibor markazida bo'ldi, chunki bu nafaqat investitsion va savdo jihatlari, balki global miqyosidagi masalalarni ham o'z ichiga oladi. Tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning istiqbollari ko'p jihatdan aynan ushbu loyihaga qaratilgan. Xitoy doimiy ravishda Yevropaning savdo hamkorlari o'rtasida yetakchi o'rinlarda turadi, misol tariqasida, oxirgi 20 yil ichida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyaning umumiy qiymati 120 milliard dollarni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar investitsiyaviy sohadagi hamkorlikni kengaytirishga bo'lgan talabni oshiradi va bu o'z navbatida taraflarning iqtisodiy holatini va pandemiyaning salbiy oqibatlarini yengillashtirishga xizmat qiladi.² Shuni alohida qayd etish kerak, ushbu hujjat Xitoy tomonidan ko'plab ahamiyatli kelishuv va majburiyatlarni o'z ichiga oladi va bu o'z navbatida ikki taraf o'rtasidagi aloqalarni yaxshilashga xizmat qilishi kerak. Birinchi navbatda, Xitoy tarafi o'z iqtisodida yevropalik investorlarning ishtirokini sezilarli darajada o'stirishni nazarda tutadi, shu qatorda, telekommunikatsiya, sog'liqni saqlash va biotexnika ishlab chiqish kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Aynan shu sohalar Xitoy tamonidan milliy xavfsizlikni ta'minlashda muhim deb hisoblangan va shu paytgacha xorijiy investorlar uchun yopiq bo'lgan. Ikkinchidan, Xitoy o'z tamonidan mahalliy tadbirkorlarga berilayotgan davlat subsidiylari haqida ochiq ma'lumot berishni ta'minlashi ko'zda tutilgan, chunki bu holat yevropalik investorlarning Xitoy bozoridagi huquq va qiziqishlariga zarar qilishi mumkin. Bundan tashqari Xitoy o'z zimmasiga mehnatni va atrof-muhit muhofazasini ko'tarish, xalqaro huquq normalariga amal qilish, qolaversa Xalqaro klimat va mehnat to'g'risidagi Parij konvensiyasi asosida ish yuritish majburiyatini o'z zimmasiga olishi ko'zda tutilgan. Qolaversa, otgan yili Xitoyda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar haqidagi qonun kuchga kirdi va bu qonun asosan xorijiy investorlarni Xitoy ichki bozoriga kiritishni nazarda tutadi.

Albatta, Xitoy va Yevropa davlatlari o'rtasidagi investitsion kelishuv, bu ikki taraf o'rtasidagi strategik sheriklik yo'lida muhim qadamlardan hisoblanadi, shu bilan birga kelajakda erkin savdo zonalarini tashkil etishda asos bo'lishi mumkin. Xitoy uchun xorijiy investitsiya hajmining oshishi ichki bozorni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Hukumat tomonidan qabul qilingan " ikki tomonlama muloqat" strategiyasi ichki bozorni tashqi savdo-sotiq orqali rivojlantirishni, hamda milly bozorning hajm quvvatini oshirishni yetakchi maqsad sifatiga ko'taradi. Shu tariqa Xitoy nafaqat, investitsiyani import qiluvchi, balki import qiluvchiga ham aylanadi.

O'z navbatida raqamlarga qaraydigan bo'lsak, bu ikki xalqaro munosabatlar subyektlarining tutgan o'rni va istiqboldagi kutilayotgan hamkorlikning kengayishi ko'lamini tasavvur qilish mumkin. Hech qanday shubhasiz Bryussel va Pekinni dunyodaki yirik savdo markazlari deb atashimiz mumkin. Misol tariqasida 2017 yilgi jahon savdosini oladigan bo'lsak bu ikkala tomonga umumiy qiymatning 43,7% to'g'ri kelgan, dunyo eksporti 32,5% va importning 31,6% hajmi bilan Yevropa yetakchilik qiladi.³ O'zaro savdoga to'xtaladigan bo'lsak, yangi asr dan to 2017 yilgacha yevropadan Xitoyga import 88,7 mlrd dan 402,4 mlrd yevrogacha gacha o'sishni, eksport esa 30,2 mlrd dan 195,3 mlrd yevrogacha o'sish ko'rsatishini nomoyon etdi.⁴

² Importance of Agreement for Global Economy Recovery. People's Republic of China Government. 03.01.2020.
http://www.gov.cn/xinwen/2021-01/03/content_5576297.htm?gov

³ EU Trade G-2 09/11/2018, с учётом внутрисоюзной торговли по UN COMTRADE

⁴ European Comission, Directorate-General for Trade (DGN) 06/11/2018 (ec.europa.eu)

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, bir tomondan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari Xitoy sarmoyasini iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida baholashsa, lekin boshqa tomondan, Xitoyning o'zida Yevropa Ittifoqidagi Xitoy investorlari bilan solishtirganda, ikki xil munosabat mavjud. Masalan, Yevropada xitoylik va yevropalik investorlar o'rtasida mutlaqo farq yo'q, ikkalasi ham teng huquq va imkoniyatlarga ega, ammo Xitoyda vaziyat butunlay boshqacha, yevropalik investorlar Xitoy iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga ko'p cheklovlar va limitlarga uchrashadi, bu ko'p jihatdan davlatning iqtisodiyotdagi o'rni bilan bog'liq.

Xitoy uchun yevropaga investitsiya kiritishning asosiy maqsadlaridan biri bu bozor va texnologiyalarga kirib borish, o'z navbatida yevropaning kapital kiritishidan maqsad uning iste'mol bozoriga va xizmatlar turiga kirishdan iborat. Katta ehtimol bilan yevropaliklar uchun xitoydagi asosiy muammo bu Xitoy hukumatining davlat kompaniyalari uchun imtiyozli siyosatini qayd etish mumkin. Shuningdek Xitoy yevropa davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda juda ko'plab takliflarni beradi va ular ichida global miqyosidagi projekt "Bir makon bir yo'l" ni alohida qayd etishimiz joiz.

Yevropa va Xitoy o'rtasidagi aloqalarning istiqbollari haqida gap yuritganda, "Bir makon bir yo'l" loyihasi favqulodda ahamiyat kasb etadi. Bu loyiha hukumat rahbari Si Szinpin tamonidan 2013-yilda dunyo rivojlanishining "xitoycha modeli" sifatida ilgari surilgan.⁵ Loyiha o'z ichiga yevropa va Xitoy o'zaro bog'laydigan quruqlik va dengiz marshrutlarini qurish, o'z navbatida iqtisodiy infrastrukturani rivojlantirish ko'zlangan. Qolaversa, ushbu tashabbus o'zaro iqtisodiyotni to'ldirish, potensial ishtirokchilarning infrastrukturasiidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va loyiha faqat iqtisodiy harakter kasb etishi qayd etilib kelinadi.

Tabiiy ravishda yevropaning ko'plab davlatlari bu loyihaga o'zlarining qiziqishlarini bildirishdi va ishtirok etish ishtiyoqini nomoyon etishmoqda, chunki ular bu loyiha orqali Yevropa va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yanada kengayishida umid qilishmoqda. Albatta, ko'pgina davlatlar "Bir makon bir yo'l" loyihasining bir tomonli bo'lib qolishidan havotirda ekanliklari ham ma'lum, chunki Xitoy ko'proq o'z iqtisodiy manfaatlari o'ylab loyihani yuritish ehtimoli ham yuqori.⁶

Yevropa davlatlarining ayrim qismi bu projektning savdo liberallashtirish tamoyiliga umuman mos kelmasligini alohida qayd etishadi, negaki Xitoy tomoni o'ziga tegishli kompaniyalarga ko'plab imkoniyatlar, subsidiyalar berish asosida tenglik tamoyiliga e'tibor bermay qolish holatlari ham kuzatildi. O'z navbatida Si Szinpin loyiha to'grisidagi savollarga javob berib, uni qanaqadir siyosiy fitna emasligini va o'zining milliy manfaatlaridan kelib chiqib geosiyosiy o'yin o'ynamoqchi emasligini ta'kidlab o'tgan.

Garchi, yevropa davlatlari orasida loyihaga nisbatan noaniq va ikki xil qarash mavjud bo'lsada, kundan kunga loyiha ko'lami kengayib bormoqda, bir paytning o'zida ikki tomonlama va strategik harakter kasb etmoqda.

Xitoyning o'ziga xosligi shundaki, o'z maqsadlariga erishishdagi asosiy quroli iqtisodiy omillarini qo'llashni yetakchi o'ringa qo'yadi, yevropa misolida ham xuddi shunday. Tur xil iqtisodiy takliflar orasida Osiyo infrastrukturaviy investitsiyalar bankining tashkil etilishini aytish mumkin. To'g'ri bank faoliyatining asosiy geolokatsiyasi Osiyo-tinch okeani mintaqasi,

⁵ Цзя Цинго. Китай втягивается в международные дела // 2015. С 43.

⁶ Виноградов А.О. Европейское наступление Пекина — тактикаили стратегия // Проблемы Дальнего Востока. 2014. С54.

lekin u tobora o'zining mavjud massshtabini kengaytiroqda. Asosiy maqsad iqtisodiyotni rivojlantirish, infrastrukturani yangilash va qolaversa, mintaqaviy hamkorlikni yaxshilash. Yevropaning ko'plab yetakchi davlatlari xususan Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya allaqachon bu bankning a'zolari hisoblanishadi.⁷

Fikrlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, Pekin egalari va Yevropa davlatlari o'rtasidagi aloqalar ayrim salbiy holatlar bo'lishiga qaramasdan, katta istiqbolli holatlarga ega. Ikkala taraf ham bugungi kunda iqtisodiy va siyosiy jihatdan butun dunyoda o'z vazniga ega sanalishadi. Albatta, hamkorlikdan ikki taraf ham faqat manfaatdor, Yevropa davlatlarining katta ko'pchiligi Xitoy mahsulotiga muhtoj bo'lsa, yevropaning o'zi Pekin uchun juda muhim bozor hisoblanadi.⁸

Yena bir qayd etish kerak bo'lgan holat, bu ikki taraf o'rtasidagi aloqalarga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin bo'lgan tomon, ya'ni Amerika Qo'shma Shtatlarining pozitsiyasi. Albatta, Yevropaning asosiy hamkori ham siyosiy ham iqtisodiy tarafdin Aqsh hisoblandi, lekin Xitoy tobora aktiv harakatlar va maqsadli rejalar bilan bu o'ringa da'vogarlik qilmoqda, bu o'z navbatida Vashington egalarini havotirga solmay qo'lmaydi. Albatta, Yevropa davlatlari uchun Aqsh muhim strategik hamkor va bundan ortig'i emas. Mintaqa davlatlari o'z siyosatiga va milliy manfaatlardan kelib chiqib qaror qabul qila olish kuchiga ega.

References:

1. Виноградов А.О. Китай и страны Европейского Союза во втором десятилетии XXI века. 2014. С56.
2. Цзя Цинго. Китай втягивается в международные дела // 2015. С 43.
3. Виноградов А.О. Европейское наступление Пекина — тактика или стратегия // Проблемы Дальнего Востока. 2014. С54.
4. Носов М.Г. (2015) ЕС – Китай в “Европейский союз в поиске глобальной роли: политика, экономика, безопасность” стр. 268–287
5. Importance of Agreement for Global Economy Recovery. People's Republic of China Government. 03.01.2020. http://www.gov.cn/xinwen/2021-01/03/content_5576297.htm?gov
6. EU Trade G-2 09/11/2018, с учётом внутрисоюзной торговли по UN COMTRADE
7. European Commission, Directorate-General for Trade (DGN) 06/11/2018 (ec.europa.eu)
8. Удар по финансовой монополии запада: АБИИ переходит от слова к делу <https://politrussia.com/ekonomika/udar-po-finansovoy-89>

⁷ Удар по финансовой монополии запада: АБИИ переходит от слова к делу <https://politrussia.com/ekonomika/udar-po-finansovoy-89>

⁸ Носов М.Г. (2015) ЕС – Китай в “Европейский союз в поиске глобальной роли: политика, экономика, безопасность” стр. 268–287.